

---

Qo'shtepa tumanida 6 ta paxta terish mashinasida hosil yig'ilmoqda  
#Paxta\_mavsumi\_2024

Qo'shtepa tumani hokimi Anvarjon Abdullayev bugun hududlarda bo'lib paxta yig'im-terimini tashkil etilishi jarayoni bilan tanishdi.

Joriy yilda qo'shtepalik paxtakorlar jami 6 ming 790 gektar maydondan 24.6 ming tonna yuqori sifatli hosil olishni ko'zlashgan. Qolaversa, 6 ta paxta terish mashinasi mavsumda ishtirok etayotgani muhim samara beryapti.

"Langar" MMTP hududidagi "Nishonov Rovshan Odil o'g'li" fermer xo'jaligida paxta yig'im-terimini tashkil etilishi ko'zdan kechirildi. Ushbu fermer xo'jaligida paxta yig'im-terimida qo'l mehnati ulushini kamaytirish, terimni mexanizatsiyalashgan shaklda tashkil qilish maqsadida paxta terish mashinasida hosil yig'ilmoqda.

Tuman rahbari tomonidan terimchi va mexnazarotlarga yetarli sharoit yaratish, terim sifati, sur'atni oshirish bo'yicha mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berildi.

2024-09-20 13:10:20